



## FONEMA VA ALLOFONLAR O'RTASIDAGI FARQ

**Rahimberdiyeva Shahzodabonu**

UrDU Ingliz tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi: ingliz tili 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Tilshunoslikda fonemalar va allofonlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular tovush tizimining muhim elementlari sanaladi. So'zlarning ma'nolarini farqlashda yordam beruvchi tovushlarni o'z ichiga oladi. Bu ikki terminning funksiyalari va farqlari turlichaligi tufayli boshqa-boshqa doiralarda qo'llaniladi. Ushbu maqolada fonema va allofonlar tushunchasi hamda ularning asosiy xususiyatlari va o'rtasidagi farqlar haqida batafsil to'xtalindadi.

**Kalit so'zlar:** fonema, allofonlar, asosiy jihatlari, aspiratsiyali va deaspiratsiyali tovushlar, tadqiqotlar, o'zbek tilida fonema va allofonlar o'rtasidagi farq.

Fonema – bu tilning eng kichik ma'no farqlovchi birliklaridan bo'lib, bir tilning turli so'zleri orasidagi farqlarni aniqlashda xizmat qiladi. Masalan, ingлиз tilidagi "p" va "b" tovushlari bir-biridan farqlanadi va ular so'zlarning ma'nosini o'zgartirib keladi: "bat" va

"pat" so'zleri bir-biridan faqat boshlang'ich fonema orqali farqlanadi. Birinchi so'z "ko'rshapalak" ma'nosini anglatsa, ikkinchi so'z "sekin urib qo'ymoq" ma'nosini anglatdi. Shu sababli, "p" va "b" tovushlari ingлиз tilida alohida fonemalar sifatida tan olinadi. O'zbek tilidagi "katta" va "qatta" so'zlaridagi /k/ va /q/ tovushlari turli fonemalar hisoblanadi, chunki ular so'zning ma'nosini o'zgartiradi. Fonemalar tilning fonologik tizimida mavhum tushunchalar bo'lib, ularni ma'noni farqlash uchun zarur hisoblanadi.

Allofon esa bir fonemaning turli talaffuz variantlari bo'lib, ular so'zning ma'nosini o'zgartirmaydi. Allafonlar bir fonemaning talaffuz sharoitlariga qarab o'zgaradigan shakllaridir. Allofonlar bir fonemaning talaffuz sharoitlariga qarab o'zgaradigan shakllaridir. Masalan, ingliz tilidagi "p" tovushi ikki xil tarzda talaffuz qilinishi mumkin: so'z boshida ("pin" so'zida) havo chiqishi bilan, aspiratsiyali, va so'z ichida yoki oxirida (masalan, "spin" so'zida) aspiratsiyasiz, /t/ fonemasi so'z boshida, o'rtasida va oxirida turlicha talaffuz qilinishi mumkin: "top", "butter", va "cat" so'zlaridagi /t/ tovushlari



turli allofonlardir.Bu misollarda ma'no o'zgartirilmasdan,faqat talaffuz farqini ko'rsatadi va allofonlar hisoblanadi.

Fonema va allofonlar o'rtasidagi asosiy farq ularning ma'no farqlovchi funksiyasida yotadi.Ularning asosiy jihatlari quyidagilar sanaladi:

1.Ma'no farqlash:Fonema tildagi so'zlar ma'nosini farqlash uchun xizmat qiladi.Masalan , ingliz tilidagi "k" va "g" fonemalari "cat" va "gat" so'zlarining ma'nosini o'zgartiradi.Allofonlar esa bunday ma'no farqlovchi vazifani bajarmaydi.Ular faqat fonemaning talaffuz variatlari bo'lib,so'z ma'nosiga ta'sir qilmaydi.Masalan, "t" aspiratsiyali kuchli "top" va "t" qisqa,deaspiratsiyali "water" kabi allofonlari mavjud bo'lsa ham, bu ikki talaffuz so'zning ma'nosini o'zgartirmaydi.

2.Abstaktlik darajasi:Fonemalar tilning fonologik tizimidagi abstrakt birliklardir.Ular yozuvda ko'pincha qavs ichida ifodalanadi va bir fonemaning barcha talaffuz variantlarini o'z ichiga oladi.Allofonlar esa bu fonemaning konkret talaffuz shakllari bo'lib'ular yozuvda qavs ichida ifodalanadi.Misol uchun, "p" fonemasi bir necha allofonlarga ega bo'lish mumkin: [p] aspiratsiyali va [p] deaspiratsiyasiz.

3.Kontekstga bog'liqlik:Allofonlar talaffuz qilinishida kontekstga bog'liq .Masalan, bir tovushda so'z boshida,so'z ichida yoki so'z oxirida turishi talaffuzni o'zgartirishi mumkin.Masalan [t] tovushi so'z boshida "top" aspiratsiyali va so'z ichida "stop" deaspiratsiyali holatda uchraydi.

4.Kombinatorika: Allofonlar ko'pincha bir fonemaning kombinator variantlari sifatida qaraladi. Kombinator allofonlar talaffuzga ta'sir qiluvchi qo'shimcha sharoitlar tufayli paydo bo'ladi. Masalan, ingliz tilida [l] fonemasining ikkita allofoni bor: so'z boshida (masalan, "light" so'zida) [l] kabi, va so'z oxirida (masalan, "ball" so'zida) [t] kabi (quyuq "l"). Bu kombinator allofonlardir, chunki ular talaffuz sharoitlariga qarab o'zgaradi.

O'zbek tilida /k/ fonemasi so'z boshida va so'z oxirida bir xil talaffuz qilinadi: masalan,

"kitob" . Ingliz tilida esa /k/ fonemasi allofonlarga ega, masalan, "cat" [kʰæt] va "skin" [skɪn] so'zlarida bu farq yaqqol ko'rindi. "Cat" so'zidagi [kʰ] aspiratsiyali bo'lsa, "skin" so'zida [k] deaspiratsiyasiz.

Boshqa tillardan misollar: Rus tilida /r/ tovushi qattiq va yumshoq bo'lishi mumkin:

masalan, "река" (reka, daryo) va "рябина" (ryabina, tog'olcha). Bu tovushlarning farqi allofonlar orqali namoyon bo'ladi, lekin fonema o'zgarishiga olib kelmaydi.



Tilshunoslik tadqiqotlariidan, Roman Jakobson va Nikolay Trubetskoy kabi tilshunoslari fonemalar tizimi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Trubetskoy fonologiya va fonetikaga oid tushunchalarni chuqr o'rganib, fonema va allofon farqlarini aniqlashtirgan. Uning asarlari fonologik tuzilmalarni tahlil qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbek tilida fonemalar va allofonalar o'rtasidagi farqni ko'rsatish uchun quyidagilar misol bo'lishi mumkin:

- Fonema: /d/ va /t/ fonemalari: "dil" va "til" so'zlari ma'noni farqlaydi.
- Allofon: /t/ fonemasining [t] va [tj] shakllari: "to'p" va "tosh" so'zlarida talaffuzdagi farq bor, lekin ma'no o'zgarmaydi.

Fonemalar va allofonalar o'rtasidagi farq tilshunoslikda fundamental tushunchalardir. Fonema — ma'no farqlovchi minimal birlik, allofona esa bu fonemaning talaffuz variantidir. Ularning o'zaro aloqasi va farqlari tilning fonologik va fonetik xususiyatlarini tushunishga yordam beradi. Ushbu tadqiqot, fonemalar va allofonalar o'rtasidagi farqni aniq tushunishga va ularning tilshunoslikdagi o'rmini baholashga imkon beradi.

Fonemalar, shuningdek, tilning morfologik va sintaktik strukturasida ham muhim rol o'ynaydi. Ular so'zlarning qismlari, affikslar va boshqa morfologik birliklar bilan birga ishlataladi. Fonemal tizim, bir tilning fonologik xarakterini belgilab beradi, bu esa tilning o'ziga xosligini belgilaydi. Fonema va allofonlar tilshunoslikning asosiy tushunchalari bo'lib, tilning tovush tizimini tushunishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Fonemalar ma'no ajratuvchi birliklar sifatida turli so'zlarni farqlasa, allofonlar bitta fonemaning turli talaffuz shakllarini ifodalaydi. Bu o'zgarishlar so'zning ma'nosiga ta'sir qilmaydi, lekin talaffuzdagi farqlarni aks ettiradi.

Turli tillar fonema va allofonlarning namoyon bo'lishi jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, ingliz tilida /t/ fonemasi aspiratsiyali va aspiratsiyasiz allofonlarga ega bo'lib, so'zning ma'nosini o'zgartirmasa ham, talaffuzini o'zgartiradi. O'zbek tilida esa bunday aspiratsiya hodisasi mavjud emas. Boshqa tillarda ham, masalan, rus yoki fransuz tilida, allofonlar ko'pincha yumshoq va qattiq tovushlar orqali ifodalanadi.

### Xulosa:

Til o'rganuvchilar uchun fonema va allofonlarni to'g'ri tushunish, ayniqsa, yangi til o'rganganda, talaffuzdagi xatolarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Tilshunoslik tadqiqotlari fonemalarning nafaqat fonetik, balki



akustik xususiyatlarini ham ochib berib, ularning talaffuzdagi o'zgarishlarini aniqlashga yordam beradi. Shunday qilib, fonema va allofonlarning farqlarini chuqur o'rganish til o'rganuvchilar va til o'rgatuvchilar uchun juda zarurdir. Fonema — til tizimidagi muhim birlik bo'lsa, allofonlar fonemani talaffuz qilish uslubidir. Fonemalar ma'noni farqlashda ishtirok etsa, allofonlar talaffuzdagi farqlar orqali so'z ma'nosini o'zgartirmaydi. Umuman olganda, fonemalar va allofonlar tilning tovush tizimida juda muhim rol o'ynaydi, ularning to'g'ri talqini va amaliy qo'llanilishi tilshunoslik sohasida katta ahamiyatga ega.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Jakobson, R. (1968). "Child Language, Aphasia, and Phonological Universals" Mouton.
2. Trubetskoy, N. S. (1969) "Principles of Phonology" University of California Press.
3. Kenstowicz, M. (1994) "Phonology in Generative Grammar"
4. International Phonetic Association (IPA)  
<https://www.internationalphoneticalphabet.org/>
5. Shukurov, S. (2012) O'zbek tili fonetikasining asoslari. Toshkent, O'zbekiston Milliy universiteti